


ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 6 **2026**



ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000



# «MAMUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 6 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 6

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 6



TOШKENT-2026

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№6 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-6>

Бош мухаррир: | Главный редактор:  
Chief Editor:

**Matyakubov Umidjon Raximovich**  
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель  
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

**Xudonazarov Egambergan Madrahimovich**  
(PhD., dots.)

## TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

### FILOLOGIYA FANLARI

**O'rozboyev Abdulla Durdibayevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Axmedov Oybek Saporboyevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Galiyeva Margarita Rafaelovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

**Cho'ponov Otanazar Otojovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### TARIX FANLARI

**Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev**

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Ashirov Adhamjon Azimbayevich**

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

**Shaydurov Vladimir Nikolayevich**

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

**Abdullayev Utkir Ismoilovich**

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

**Matkarimova Sadoqat Maqsudovna**

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Abdullayev Timur Pulatovich**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Abdalov Umidbek Matniyazovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

**Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

### PSIXOLOGIYA FANLARI

**Shoumarov G'ayrat Baxromovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Kryukova Tatyana Leonidovna**

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

**Karpinskiy Konstantin Viktorovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

**Urazbayeva Dilbar Abdullayevna**

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna**

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

### IQTISODIYOT FANLARI

**Ruzmetov Baxtiyar**

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Sherov Alisher Bakberganovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Voronsova Yuliya Vladimirovna**

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

**Jabborov Umarbek Rustambekovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Cho'ponov San'at Otanazarovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Niyazmetov Islambek Masharipovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

## PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

### **Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

### **Adilov Zafar Yunusovich**

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Boltayev Abdurahim Amanovich**

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Zoirov Erkin Xalilovich**

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

### **Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

## TIBBIYOT FANLARI

### **Yuldashev Baxrom Sobirjanevich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Abdullayev Ravshanbek Babajonovich**

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Esamuratov Aybek Ibragimovich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Samandarova Barno Sultonovna**

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Tajiyeva Zebo Baxodirovna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

## ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

### **Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li**

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Тадqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

## IQTSOD

- 1. Boltayev B. Mixliyev O.**  
QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....7
- 2. Djumabayeva Sh.**  
O‘ZBEKISTONDA NIKOH VA AJRALISH JARAYONLARINING IJTIMOY-DEMOGRAFIK O‘ZGARISHLARI.....11
- 3. Raximov Matqurbon Ravshanbek O‘g‘li.**  
GLOBALLASHUV SHAROITIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA‘MINLASHNING ZARURATI.....19
- 4. Rustamboyev Kamronbek Otabek o‘g‘li.**  
O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH YO‘LLARI.....24
- 5. Курбанова Дилфуза Баходировна.**  
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ СФЕР УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ.....27
- 6. Egamberdiyev Shoxruxbek Davronbekovich.**  
KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING XORIJ TAJRIBASI.....33

## FILOLOGIYA

- 1. Jo‘rayeva Muhayyo Abduljalilovna**  
O‘ZBEK VA INGLIZ SO‘ZLASHUV DISKURSIDA DISKURS MARKERLARINING INTERAKTIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI.....38
- 2. Raximova Dilfuza Masharip qizi.**  
“XX–XXI ASR BRITANIYA ROMANLARIDA SHARQ VA G‘ARB BADIY TAFAKKURI SINTEZI”.....42
- 3. Baxtiyorov Asadbek Dilshod o‘g‘li.**  
ANTONIO JENKINSON VA UNING XIVA XONLIGIGA TASHRIFI.....46
- 4. Ювашева Шоира Махаматовна**  
ВЛИЯНИЕ КУЛЬТУРНЫХ НОРМ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ.....48

## PSIXOLOGIYA

- 1. Mashhura Sultonova Rustamboyevna.**  
YETUKLIK YOSHIDAGI AYOLLARDA O‘Z-O‘ZIDAN QONIQISH DARAJASIGA PSIXOLOGIK RESURLAR VA QADRIYATLAR TIZIMINING TA‘SIRI.....52
- 2. Sherjanova Nodira.**  
MIGRANT OILALARDA TARBIIYALANAYOTGAN O‘SMIRLARDA PROSOTSIAL XULQ-ATVOR VA EMPATIYA MUNOSABATI.....58

<b>3. Odamova O'g'iljon Kenjayevna.</b> SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING YUZAGA KELISH SABABLARI.....	63
--	----

## TARIX

<b>1. Egamberdieva Nigora Azadovna. Raxmatullaeva Azada.</b> XORAZM VOHASIDA ILK DAVLATNING SHAKLANISHI JARAYONINING TAHLILI (ARXEOLGIK VA YOZMA MANBALAR ASOSIDA).....	68
<b>2. Abdullayev U.I. Kurshat Y. Satimov B.</b> OROLBO'YIDA MUDOFA ISTEHKOMLARNING KELIB CHIQISHI BO'YICHA BA'ZI BIR MULOHAZALAR.....	73
<b>3. Egamberdiyeva Zulfiya Zafar qizi.</b> OLTIN O'RDA DAVRIDA XORAZMDA IQTISODIY HAYOT.....	78
<b>4. Бобождонов У.</b> ҚЎЙҚИРИЛГАН ҚАЛЪА АНТИК ДАВР МАДАНИЙ МЕРОС МАРКАЗИ.....	82
<b>5. Umidbek Abdalov Matniyazovich. Ibdullayeva Oymarjon Shavkat qizi.</b> FROM THE HISTORY OF DIPLOMATIC AND ECONOMIC RELATIONS BETWEEN THE KHIVA KHANATE AND THE RUSSIAN EMPIRE AT THE BEGINNING OF THE 18 <sup>th</sup> - 20 <sup>th</sup> CENTURIES.....	86

## PEDAGOGIKA

<b>1. Ismoilova Gulnoza Olimboy qizi.</b> BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING 4 K KOMPETENSIYALARINI RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA RIVOJLANTIRISH.....	91
<b>2. Yunusxo'jayev Mustafo Zafarxo'ja o'g'li.</b> NAJMIDDIN KUBRO PEDAGOGIK QARASHLARI ASOSIDA TALABALARNING MA'NAVIY-AXLOQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI.....	96
<b>3. Radjapova Feruza Abdullayevna.</b> PEDAGOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK TASNIFI VA ULARNI PEDAGOGIK TA'LIMG A INTEGRATSIYA QILISH ALGORITMI...106	106

**Egamberdiyeva Zulfiya Zafar qizi**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Tarix yoʻnalishi talabasi

E-mail:zulfiyaegamberdiyeva13@gmail.com

## OLTIN OʻRDA DAVRIDA XORAZMDA IQTISODIY HAYOT



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.2100881>

**ANNOTATSIYA.** Ushbu maqolada Oltin Oʻrda davlati davrida Xorazmning iqtisodiy holati tahlil qilinadi. Unda shahar infratuzilmasi, hunarmandchilik, savdo-sotiqtizimining asosiy xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, Xorazmning iqtisodiy hayotida sugʻorma yer dehqonchiligi va xalqaro savdoning oʻrni koʻrsatib beriladi.

**KALIT SOʻZLAR:** Xorazm, iqtisodiy hayot, Oltin Oʻrda, Urganch, Ipak yoʻli, savdo, hunarmandchilik, temir, Volgaboyi, bozorlar, tanga.

**АННОТАЦИЯ.** В данной статье анализируется экономическая ситуация в Хорезме в период Золотой Орды. Выделяются основные особенности городской инфраструктуры, ремесел и торговой системы. Также показана роль орошаемого земледелия и международной торговли в экономической жизни Хорезма.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** Хорезм, экономическая жизнь, Золотая Орда, Ургенч, Шелковый путь, торговля, ремесла, железо, Поволжье, рынки, чеканка монет.

**ABSTRACT.** This article analyzes the economic situation of Khorezm during the Golden Horde period. It highlights the main features of the urban infrastructure, crafts, and trade system. It also shows the role of irrigated agriculture and international trade in the economic life of Khorezm.

**KEYWORDS:** Khorezm, economic life, Golden Horde, Urgench, Silk Road, trade, crafts, iron, Volga region, markets, coinage.

**KIRISH.** XIII–XIV asrlarda Markaziy Osiyo hududida yuz bergan siyosiy oʻzgarishlar natijasida Xorazm mintaqasi Oltin Oʻrda davlati tarkibiga kirib, uning muhim iqtisodiy va strategik hududlaridan biriga aylandi. Moʻgʻullar istilosidan keyingi davrda dastlab vayronaga aylangan xoʻjalik tizimi asta-sekin tiklanib, yangi siyosiy sharoitda rivojlanish bosqichiga oʻta boshladi. Ayniqsa, Xorazmning geografik jihatdan qulay joylashuvi uning iqtisodiy hayotida muhim omil boʻlib xizmat qildi.

Mazkur davrda Xorazm Buyuk Ipak yoʻlining muhim chorrahalaridan biri sifatida xalqaro savdo aloqalarida faol ishtirok etdi. Bu esa shaharlar taraqqiyoti, hunarmandchilik ishlab chiqarishining kengayishi va ichki hamda tashqi bozorlarning shakllanishiga sezilarli taʼsir koʻrsatdi. Shuningdek, sugʻorma dehqonchilik asosida rivojlangan qishloq xoʻjaligi mintaqa iqtisodiyotining asosiy tayanchlaridan biri boʻlib qoldi. Amudaryo havzasidagi irrigatsiya tizimlari orqali yerlarni oʻzlashtirish va hosildorlikni oshirish imkoniyati kengaydi.

Bundan tashqari, Xorazm shaharlari - Urganch, Kat va boshqa markazlar - iqtisodiy hayotning muhim o'choqlari sifatida shakllanib, ularda savdo, hunarmandchilik va madaniy aloqalar rivojlandi. Ushbu jarayonlar Oltin O'rda davrida Xorazmning nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro iqtisodiy tizimdagi o'rnini mustahkamladi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Oltin O'rda davrida Xorazmning iqtisodiy holatini tahlil qilish, undagi asosiy iqtisodiy tarmoqlar — qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdo tizimining rivojlanish xususiyatlarini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Mo'g'ullar istilosidan so'ng Xorazm hududi Chingizxon tomonidan uning o'g'illari o'rtasida taqsimlab berildi. Natijada hudud ikki siyosiy birlik — Jo'ji ulusi (Oltin O'rda) va Chig'atoy ulusi o'rtasida bo'linib ketdi[1,134]. Bu holat Xorazmning iqtisodiy rivojlanishida murakkab dual tizimni yuzaga keltirdi.

Xorazmning asosiy qismi Oltin O'rda tarkibiga kirishi uning iqtisodiy rivojlanishiga nisbatan ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Oltin O'rda hukmdorlari va ularning noiblari savdo yo'llarini nazorat qilish va daromadni oshirish maqsadida Xorazmga alohida e'tibor qaratganlar[2,14]. Natijada bu hududda shahar infratuzilmasi, hunarmandchilik va savdo-sotiq tez sur'atlarda tiklana boshladi.

Istilo natijasida butunlay vayron qilingan Gurganch vayronalaridan uncha uzoq bo'lmagan joyda Urganch nomi bilan yangidan shahar barpo etiladi. Bu shahar avvalgi nomdosh shahri singari nihoyatda ko'rkam va chiroyli bo'lgan. Yangi Urganch qisqa vaqt ichida nafaqat iqtisodiy markaz sifatida rivojlandi, balki madaniy hayotning muhim maskaniga ham aylandi. Bu hududda hunarmandchilik, me'morchilik va savdo-sotiq izchil taraqqiy etib, shahar Yevropa hamda Osiyoni o'zaro bog'lovchi muhim savdo nuqtalaridan biriga aylandi. XIV asrning birinchi yarimida Ko'hna Urganchning qayta tiklanib, o'z davrining yirik va obod shaharlaridan biriga aylanishida Gurganch malikasi — Oltin O'rda tomonidan Xorazmni boshqarish uchun tayinlangan Qutlug' Temurning rafiqasi To'rabek xonimning hissasi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur davrda, ispaniyalik arab sayyohi Ibn Batuta Xorazmga qilgan sayohatida Ko'hna Urganchni- "turkiylarning eng katta, chiroyli va ulug'vor shahri", aholisini esa "mavjlanib turgan dengizni eslatadi" [3,58]- deya ta'riflaydi.

Mo'g'ullar istilosi natijasida vayron bo'lgan ko'plab kanallar va suv inshootlari XIV asrga kelib qayta ta'mirlandi. Amudaryodan chiqarilgan sug'orish tarmoqlari orqali dehqonchilik yerlari kengaytirildi va hosildorlik oshirildi. Ayniqsa, bug'doy, arpa, tariq, sholi hamda poliz ekinlari yetishtirish rivojlandi[4, 87]. Qishloq xo'jaligida hosildorlikning ortishi shaharlarning oziq-ovqat bilan ta'minlanishiga hamda ichki bozorlarning mustahkamlanishiga xizmat qildi.

XIII-XIV asrlarda Xorazm shaharsozligida inshootlarning o'ziga xos xususiyati ikki va uch ko'p gumbazli imoratlarning keng qo'llanilishi edi. Shunday uslubda qurilgan yodgorliklar qatoriga Najmiddin Kubro, Mazlumxon-Sulu, Shayx-Muxtor Vali maqbaralari kiradi. Bundan tashqari shu uslubda qurilgan Ko'hna Urganch va boshqa shaharlarda qad ko'targan, o'z davrida nafisligi va salovati bilan hammani hayratga solgan masjidlar, madrasalar, xammomlar, bozorlar va karvonsaroylar xorijiy mehmonlarni ham havasini keltirgan. Shaharga kelayotgan aholi va savdogarlar soni oshib borishi natijasida shahar maydoni kengayib, 400 gektarga yetgan[5,98].

Volga bo'yidagi Saroy-Botu va Saroy-Berka kabi shaharlarda va Shimoliy Kavkazda xorazmlik ustalar tomonidan bunyod etilgan inshootlar Xorazm me'morchilik an'alarining keng tarqalganligini ko'rsatadi[6,127].

Ushbu davrda Xorazm hunarmandchiligining temirchilik, shishasozlik, kulolchilik, sangtoroshlik turlari rivojlanganini ko'rishimiz mumkin. Xorazm ustalari turli xil idishlar, ko'zalar, laganlar va bezakli sopol buyumlar tayyorlagan. Bu mahsulotlar nafaqat mahalliy ehtiyojni qondirgan, balki savdo orqali qo'shni hududlarga ham eksport qilingan. Temir, mis va bronzadan yasalgan qurollar, mehnat qurollari va uy-ro'zg'or buyumlari keng tarqalgan Xorazm ustalari pichoq, qilich, nayza uchlari hamda turli xo'jalik asboblari ishlab chiqargan[7,40]. Metall buyumlarning sifatli ishlanishi mintaqada hunarmandchilikning yuqori darajada bo'lganini bildiradi.

Oltin Oʻrda davrida Xorazm mintaqasi xalqaro savdo tizimida muhim oʻrin egallagan hududlardan biri boʻldi. Uning geografik jihatdan Buyuk Ipak yoʻlining asosiy chorrahalaridan birida joylashganligi Sharq va Gʻarb oʻrtasidagi iqtisodiy aloqalarda vositachilik rolini kuchaytirdi.

Xorazm orqali oʻtgan savdo yoʻllari Volga boʻyi, Qrim, Eron, Hindiston va Xitoy bilan bogʻlangan. Ayniqsa, Oltin Oʻrda poytaxtlari — Saroy-Botu va Saroy-Berka shaharlariga ipak va matolar, ziravorlar, metall buyumlar qishloq xoʻjaligi mahsulotlari xususan, guruch va baliq olib borib sotishgan. Yakubovskiy “Oltin Oʻrda madaniyati” deb atagan narsa aslida Volga boʻyiga olib kelingan Xorazm madaniyatidan boshqa hech narsa emasligini ishonch bilan taʼkidlaydi [8,309].

Savdo aloqalarining rivojlanishi natijasida shaharlarda bozorlar, karvonsaroylar va savdo markazlari koʻpaydi. Pul muomalasining rivojlanishi, xususan tangalar zarb qilinishi, savdoning yuqori darajada tashkil etilganidan dalolat beradi. Xorazmning yuksalishi ayniqsa, Oltin Oʻrda xoni Oʻzbekxon (1312-1342-yillar) hukmronligi davriga toʻgʻri keladi. Bu yillarda xatto Oltin Oʻrda tangalari Saroy Berka bilan bir qatorda Gurganchda ham zarb qilinardi [9,292]. Hududda savdo hajmining ortishi natijasida pul muomalasi yanada faollashib, tangalar zarb etish davlat iqtisodiy siyosatining muhim yoʻnalishlaridan biriga aylangan. Arxeologik topilmalar va numizmatik maʼlumotlar Gurganch va boshqa shaharlarda zarb qilingan tangalarning nafaqat mahalliy bozorlarda, balki qoʻshni hududlarda ham muomalada boʻlganligini koʻrsatadi [10,115]. Bu holat Xorazmning mintaqalararo savdo tizimidagi mavqegini mustahkamlagan. Bundan tashqari, Oltin Oʻrda hukmdorlarining savdo va hunarmandchilikni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan siyosati natijasida shaharlarda iqtisodiy barqarorlik taʼminlangan. Xususan, boj va soliqlar tizimining tartibga solinishi savdogarlar uchun qulay sharoit yaratib, ichki va tashqi savdo hajmining ortishiga sabab boʻlgan [11, 203]. Mazkur omillar Xorazmning XIV asrga kelib Oltin Oʻrda tarkibidagi eng rivojlangan iqtisodiy hududlardan biriga aylanishiga imkon bergan.

XIV asrning 50 yillariga kelganda Xorazm oʻzining mustaqilligini qoʻlga kiritadi. Qoʻngʻirot urugʻidan boʻlgan Soʻfiylar sulolasi bu yerda qaytadan Xorazmshohlar davlatini yaratadilar. Soʻfiylar, Oltin Oʻrdaga tegishli Shimoliy Xorazm va Chigʻatoy ulusiga tegishli Janubiy Xorazmni birlashtiradilar [12,394]. Bu esa Xorazmda yangidan shahar hayoti, qishloq xoʻjaligi, savdo rivojlanishiga zamin yaratdi.

**XULOSA.** Xulosa oʻrnida taʼkidlash joizki, Oltin Oʻrda davrida Xorazm mintaqasi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshdan kechirgan boʻlsa-da, qisqa tarixiy davr ichida iqtisodiy tiklanish va barqaror rivojlanish bosqichiga oʻta oldi. Moʻgʻullar istilosi oqibatida yuzaga kelgan inqiroz holatlari keyinchalik markazlashgan siyosiy boshqaruv va savdo yoʻllarining qayta tiklanishi natijasida bartaraf etildi. Bu holat Xorazmning mintaqalararo savdo tizimidagi mavqegini mustahkamlagan.

Mazkur davrda Xorazm iqtisodiy tizimining asosiy tayanchi sifatida sugʻorma dehqonchilik tizimi shakllanib, irrigatsiya inshootlarining tiklanishi va rivojlantirilishi qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishining intensivlashuviga xizmat qildi. Bu esa nafaqat ichki isteʼmol ehtiyojlarini qondirish, balki ortiqcha mahsulotlar orqali savdo almashinuvini kengaytirish imkonini yaratdi.

Hunarmandchilik ishlab chiqarishining ixtisoslashuvi va diversifikatsiyasi shahar iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon boʻldi. Xususan, kulolchilik, metallsozlik va toʻqimachilik tarmoqlarining rivojlanishi ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar yetishtirishga zamin yaratdi. Bu jarayon oʻz navbatida urbanizatsiya darajasining ortishiga va shahar infratuzilmasining takomillashuviga olib keldi.

Xorazmning Buyuk Ipak yoʻli tizimidagi strategik joylashuvi uning xalqaro savdo-iqtisodiy aloqalarda vositachilik funksiyasini kuchaytirdi. Natijada mintaqa Sharq va Gʻarb oʻrtasidagi tovar, kapital va madaniy almashinuv jarayonlarining faol ishtirokchisiga aylandi. Pul muomalasining rivojlanishi va tangalar zarb etilishi esa iqtisodiy barqarorlik hamda bozor munosabatlarining shakllanganligini koʻrsatadi.

Oltin Oʻrda davrida Xorazmning iqtisodiy taraqqiyotida karvonsaroylar tizimi ham muhim ahamiyat kasb etgan. Savdo yoʻllari boʻylab bunyod etilgan karvonsaroylar uzoq masofadan kelgan savdogarlar uchun nafaqat dam olish maskani, balki tovarlarni saqlash va almashish markazi vazifasini ham bajargan. Karvonlarning xavfsiz harakatlanishini taʼminlash savdo hajmining

ortishiga va iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Bundan tashqari, Xorazm shaharlari o'rtasida ichki savdo aloqalari ham rivojlangan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlari va xomashyo mahsulotlarining muntazam ayirboshlanishi hudud iqtisodiyotining barqaror ishlashiga imkon yaratgan. Bozorlarning faoliyat yuritishi natijasida ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar yanada kengaygan.

Umuman olganda, Oltin O'rda davrida Xorazm iqtisodiy tizimi kompleks rivojlanish xususiyatiga ega bo'lib, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdo sohalarining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida mintaqa yuksak iqtisodiy salohiyatga ega hududga aylandi. Shu bois mazkur davr Xorazm tarixida iqtisodiy transformatsiya va integratsiya jarayonlarining muhim bosqichi sifatida ilmiy jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Хорезм в истории государственности Узбекистана. “Узбекистон файласуфлари миллий жамияти”, Тошкент-2013. 134 с.
2. А. Ю. Якубовский. Развалины Ургенча. Ленинград 1930 г. 14 с.
3. Нематулло Ибрагимов. Ибн Баттута ва унинг Урта Осиёга саехати. Тошкент, “Шарк баеши” 1993. -В 58.
4. Толстов С.П. Древний Хорезм. Москва: Издательство МГУ, 1948. – Б. 87.
5. Кудрат Машарипов. Хоразмнинг Урта Шарк ва Европа давлатлари савдо марказлари билан тарихий алоқалари (X-XV асрлар). Урганч-2016. 98-б
6. М. Ш. Кыдырниязов. Материальная культура городов Хорезма в XIII-XIV веках. Нукус, “Каракалпакстан”, 1989. 4 с.
7. Б. К. Турганов. Хоразмнинг урта асрлардаги металлсозлик хунармандчилиги. Самарканд-2009. 40- б.
8. С.П. Толстов. По следам древне Хорезмийской цивилизации. Издательство Академии Наук СССР, Москва- Ленинград-1948. 309 с.
9. Ozod Masharipov, O'tkir Abdullayev. Xorazmnomi 9-kitob. Toshkent-2022. -В. 292.
10. Федоров-Давыдов Г.А. Монеты рассказывают. Москва: Наука, 1981. – 115 с.
11. Греков Б.Д., Якубовский А.Ю. Золотая Орда и её падение. Москва–Ленинград: Издательство АН СССР, 1950. – 203 с.
12. Ozod Masharipov. Xorazmnomi, 2- kitob. Xorazm-2007. -В. 394.

boshlab, ma'naviy-axloqiy kompetensiyani shakllantirish, ijtimoiy munosabatlar madaniyatini rivojlantirish, refleksiv-metagognitiv o'sish va dunyoqarash transformatsiyasigacha bo'lgan izchil jarayonni qamrab oladi.

Birinchi bosqich – qadriyatlarni anglash va o'zlashtirish. Bu bosqichda talaba ma'naviy-axloqiy tushunchalarni shaxsiy hayot va kasbiy faoliyat uchun muhim tamoyillar sifatida qabul qiladi. Halollik, adolat, shukronalik, vafodorlik, mehribonlik, kamtarlik va sabr kabi sifatlarning mazmunini anglash talabaning keyingi rivojlanishi uchun poydevor bo'ladi. Agar qadriyatlar ongli ravishda o'zlashtirilmasa, ular xulq-atvorda barqaror namoyon bo'lmaydi. Shu sababli modelda qadriyatlarga oid muloqot, hikmatlar tahlili, badiiy-pedagogik matnlar, tarixiy misollar va refleksiv savollar muhim vosita sifatida qo'llanadi.

Ikkinchi bosqich – ma'naviy-axloqiy kompetensiyani shakllantirish. Bu bosqichda qadriyatlar amaliy ko'nikma va xulq-atvor sifatida namoyon bo'la boshlaydi. Talaba axloqiy vaziyatlarda qaror qabul qiladi, o'z fikrini asoslaydi, boshqalarning nuqtayi nazarini hurmat qiladi, adolati muloqotga kirishadi va o'z harakatining oqibatini baholaydi. Mazkur kompetensiya pedagogik kasb uchun ayniqsa muhim, chunki o'qituvchi o'z shaxsiy namunasi orqali o'quvchilarga ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchi bosqich – ijtimoiy munosabatlar madaniyatini rivojlantirish. Najmiddin Kubro merosida insonning kamoloti jamiyat bilan aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Shaxsning ichki pokligi uning boshqalarga bo'lgan munosabatida, muloqot odobida, hamkorlikda, insonparvarlikda va fuqarolik mas'uliyatida ko'rinadi. Shu sababli talabalarda ijtimoiy-kommunikativ sifatlarni rivojlantirish ma'naviy tarbiyaning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

To'rtinchi bosqich – refleksiv-metakognitiv rivojlanishni faollashtirish. Bu bosqichda talaba o'z xatosini ko'ra olish, uni tan olish, tuzatish, kelgusi rivojlanish maqsadini belgilash va o'z ustida ishlash ko'nikmalariga ega bo'ladi. Najmiddin Kubro ta'limotidagi tavba va o'zini tahlil qilish g'oyalari aynan shu bosqichning nazariy asosini tashkil etadi. Pedagogik amaliyotda bu bosqich portfoliolar, o'z-o'zini baholash varaqalari, refleksiv esselar va individual rivojlanish xaritalari orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Beshinchi bosqich – dunyoqarash transformatsiyasi va komil inson idealiga yaqinlashish. Bu bosqichda talaba bilim, qadriyat, tajriba, refleksiya va ijtimoiy mas'uliyatni yagona hayotiy pozitsiyaga birlashtiradi. Komil inson ideali zamonaviy pedagogik ta'limda axloqiy mas'uliyatli, kasbiy kompetent, insonparvar, ijtimoiy faol va o'z ustida ishlaydigan shaxsni tarbiyalash maqsadi bilan uyg'unlashadi.

2-jadval. Ma'naviy rivojlanish blokida shakllantiriladigan ijobiy sifatlar va ularning salbiy muqobillari

Ijobiy sifat	Pedagogik mazmuni	Salbiy sifat	Tarbiyaviy xavf
Halollik	Rostgo'ylik, vijdonlilik va haqiqatga sodiqlik.	Yolg'onchilik	Ishonchning yo'qolishi va axloqiy beqarorlik.
Mas'uliyat	Vazifa va burchni ongli bajarish.	Mas'uliyatsizlik	Burchga loqaydlik, kasbiy sustlik.
Insonparvarlik	Boshqalarga hurmat, mehr va yordamga tayyorlik.	Shafqatsizlik	Inson manfaatiga befarqlik.
Kamtarlik	O'zini yuqori qo'ymaslik, oddiylik.	Kibr	Boshqalarni mensimaslik.
Sabr-toqat	Qiyinchilikni matonat bilan yengish.	Sabrsizlik	Shoshqaloqlik, hissiy beqarorlik.
Bag'rikenglik	Turli fikr va qarashlarni hurmat qilish.	Murosasizlik	Nizo va inkor kayfiyati.
O'zini nazorat qilish	Nafs, hissiyot va xatti-harakatni boshqarish.	Nafsga berilish	Hirs va impulsiv qarorlar.
Ilmga intilish	Bilim olish va o'zini rivojlantirishga ehtiyoj.	Johillik	O'rganishga befarqlik.